

Namangan viloyatida chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2025- yil yanvar-noyabr dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR


I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 5 089 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 12 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 5 077 tani tashkil qildi.


2025- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 24 528,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 110,8 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 368,9 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 140,0 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 18 075,9 mlrd so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 %), uyushmagan savdo tovar aylanmasi 4 083,2 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 110,0 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (%da)



Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (ulushi foizda)




II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2025- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 895 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 884 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 17 916,8 mlrd so'mni tashkil etib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 13,4 % ga o'sdi.


Kichik biznes subektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 13 488,3 mlrd so'mni tashkil qilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,3 % ga to'g'ri keldi. Viloyatdagi jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 75,3 % ni tashkil qildi.

Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega tumanlar Chortoq (517,9 %), Namangan tumani (183,6 %) va Norin (133,5 %).

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)




III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI

2025- yil 1-dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 1 247 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 6 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 1 241 tani tashkil qildi.

2025- yilning yanvar-noyabr oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 21 763,6 mlrd so'mga yetdi. 2024- yilning mos davriga nisbatan 113,1 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 89,1 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari hissasiga to'g'ri keldi.

Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)





IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.